

**MEROS SHARTNOMASINING TUSHUNCHASI VA VORISLIK
MUNOSABATLARIDA TUTGAN O'RNI**

Abdiyeva Shaxrizoda Amirqul qizi

Anotatsiya: ushbu tezisdagi meros shartnomasining huquqiy mohiyati, uning mazmuni va fuqarolik huquqi tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Meros shartnomasi — bu meros qoldiruvchi va meros oluvchi o'rtasida tuziladigan, ikki tomonning huquq va majburiyatlarini belgilovchi huquqiy bitim bo'lib, u merosning kelajakdagi taqdirini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Tezisdagi meros shartnomasining vasiyatnomadan farqli jihatlari, uni tuzish tartibi hamda amaliyotdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, meros shartnomasi vorislik munosabatlarida huquqiy aniqlikni ta'minlash, nizoli holatlarning oldini olish va fuqarolarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishdagi roli ilmiy asosda ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: vorislik huquqida meros shartnomasi, meros shartnomasining tomonlari, vasiyatnoma va meros shartnomasining o'xshash va farqli jihatlari, meros shartnomasi institutini milliy qonunchilikka takomillashtirish.

Kirish

Vafot etgan shaxsning hayotligida boshqa shaxsga o'tishi mumkin bo'lgan huquq va majburiyatlari meros tariqasida uning vorislariga o'tadi. Fuqarolik huquqida vorislik huquqi alohida mustaqil huquq instituti bo'lib, vafot etgan shaxsning mol-mulki, mulkka bo'lgan huquqi, talab qilish huquqi, shuningdek, o'zgaralar oldidagi majburiyatlari va qarzlarining vasiyat va qonun bo'yicha vorislik asosida uning vorislariga o'tishini nazarda tutadi.

Meros huquqi esa fuqaroning vafoti munosabati bilan uning mulkiy, mulk bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy-nomulkiy huquq va majburiyatlarining bevosita qabul qilib olish yoki qabul qilishni rad etish bilan bog'liq bo'lgan huquqiy normalar yig'indisidan iborat.

R.Muxammedovning yozishicha “munosabatda turgan har bir shaxs muayyan bir huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi, bunday huquq va majburiyat, qoida tariqasida, shaxs vafot etgandan so'ng ham o'z kuchini saqlab qoladi, boshqacha qilib aytganda, shaxsning vafot etishi bunday huquq va majburiyatlarning bekor bo'lishiga olib kelmaydi”.

J.I.Yuldashevning “meros –hayotligida fuqaroga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan, uning vafot yetishi oqibatida mazkur mol-mulk, mulkiy hamda mulk bilan bog'liq shaxsiy-nomulkiy huquq va majburiyatlarning (mol-mulk, mulkiy huquq, talab qilish huquqi, boshqa shaxslar oldidagi majburiyat hamda qarzlari) uchinchi shaxsga o'tishi bilan bog'liq huquqiy munosabatlar yig'indisi”dir deb hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko'ra, mol-mulk ham meros obyekti bo'la oladi, chunki fuqaro o'ziga tegishli mol-mulkni vasiyat qilib qoldirishi mumkinligi ushbu normada nazarda tutilgan.

Vorislik masalalari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida V bo'limni o'z ichiga olgan bo'lib, vorislik – shaxsning vafotidan keyin unga xususiy mulk asosda tegishli bo'lgan mol-mulkning, shuningdek meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ba'zi huquq va majburiyatlarning merosxo'rlarga o'tishidir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1112-moddasiga ko'ra, vorislik qonun bo'yicha va vasiyat bo'yicha

amalgaga oshiriladi. Qonun bo'yicha vorislik vasiyat mavjud bo'lmasa yoki butun merosning taqdirini belgilamasa, shuningdek ushbu Kodeksda belgilangan boshqa hollarda amalga oshirilishi belgilangan.

Vasiyat bo'yicha vorislik deganda, meros qoldiruvchi tomonidan vasiyatnoma yozib qoldirish orqali o'ziga tegishli mol-mulk hamda boshqa huquq va majburiyatlarning taqdirini belgilashiga aytiladi. Vasiyatnoma bir tomonlama bitim bo'lib, fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulk yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqlar biron bir majburiyatlarni meros hisobidan bajarish yoxud merosxo'r zimmasiga biron bir harakatni sodir etish etishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklash, shuningdek, qonun bo'yicha merosxo'rlarni merosdan chetlashtirishdan iborat xohish-irodasi ifoda etiladi.

Meros shartnomasi — fuqarolik huquqining shartnoma va meros institutlariga xos elementlarni mujassam etgan murakkab yuridik konstruktsiya hisoblanadi. Meros shartnomasiga to'xtalishdan oldin shartnoma, meros hamda vorislik tushunchalariga to'xtalib o'tsak, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasida keltirilishicha, shartnoma bu - ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi kelishuv hisoblanib, tomonlarning o'zaro roziligi asosida tuziladi. Meros – bu marhumdan vorislarga qolgan mulk, marhumning mulk huquqi, boshqa ashyoviy huquqlar, aqliy faoliyat (kashfiyot, ixtirochilik, mualliflik) natijalariga bo'lgan alohida huquqlar, shuningdek bu huquqlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida hali meros shartnomasi qonunchilikka kiritilmagan bo'lsa-da, xorijiy davlatlar masalan, Germaniya, Rossiya, Shveysariya, Angliya va boshqa

ko'plab davlatlarda meros shartnomasi bugungi kunda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, meros shartnomasi deganda, meros qoldiruvchi va merosxo'r o'rtasida tuziladigan shartnoma bo'lib, unga ko'ra meros qoldiruvchi o'z mol-mulkini muayyan shaxsga (yoki shaxslarga) uning o'limi holati yuz berganidan keyin o'tkazish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, voris esa, odatda, bunga javoban muayyan majburiyatni (masalan, qaramoq, parvarishlash, moliyaviy ta'minot) bajaradi.

Bu shartnoma, odatda, vasiyatnomaga nisbatan murakkab bo'lib, taraflar o'rtasida o'zaro majburiyatlarni nazarda tutuvchi huquqiy bitim hisoblanadi. Shuning uchun meros shartnomasi mulkni o'limdan keyingina o'tkazishni nazarda tutsa-da, uning mazmuni shartnomaviy tusga ega bo'lib, taraflar roziligi asosida yuzaga keladi.

Meros shartnomasining ilk belgilari Rim xususiy huquqida ham, vasiyatnomaga binoan va qonun bo'yicha meros qilish tartiblari bilan bir qatorda kuzatilgan. Bu yerda u "ishonchli bitim" (pactum fiduciae) deb nomlangan. Mazkur bitimga muvofiq, oila boshlig'i emancipatsiya qilingan o'g'illarining mulkdagi ulushiga meros huquqi asosida da'vo qilish huquqiga ega bo'lgan, bu esa o'zaro kelishuvga asoslangan. Rimlik yuristlar tomonidan ilk bor meros shartnomasining huquqiy tushunchasi, ya'ni "o'lim holatida mulkni tantanali topshirish to'g'risidagi huquqiy kuchga ega bo'lgan harakat" va ushbu mulkni qabul qiluvchi "tabiiy merosxo'r maqomini olgan shaxs" sifatida umumiy yondashuv shakllantirilgan. Shunga qaramay, qadimgi Rimda bunday merosga oid bitimlarga salbiy munosabat ham mavjud bo'lgan. Biroq ularning tarixiy-huquqiy ahamiyati Germaniya huquqshunoslari tomonidan saqlab qolingan va keyinchalik

tizimlashtirilgan. Dastlab “meros shartnomasi” tushunchasi kelajkdagi merosga oid bitim sifatida talqin qilingan. Boshqacha aytganda, uning predmeti bo‘lajak meros yoki merosning bir qismi bo‘lgan.

Zamonaviy meros shartnomasi ta’limotining asoschilari sifatida nemis olimlari Gass va Bezeler e’tirof etiladi. Ularning fikriga ko‘ra, meros shartnomasi — bu mulkka oid bitim emas, balki merosning o‘zi (ya’ni, meros huquqi) kelajakda yuzaga chiqadigan paytgacha huquqiy tartibga solinadigan bitimdir. Shu asosda ular meros shartnomasini ikki turga ajratadi:

1. Meros huquqini o‘rnatuvchi shartnoma;
2. Meros huquqining mavjud imkoniyatini bekor qiluvchi shartnoma.

Meros shartnomasi konstruksiyasi ilk bor 1896-yilda qabul qilingan Germaniya Fuqarolik Kodeksida mustahkamlangan bo‘lib, unda maxsus to‘rtinchi bo‘lim — «Meros shartnomasi»ga bag‘ishlangan.

Meros shartnomasi konsepsiyasining ishlab chiquvchilari — german huquqshunoslari Iogann Kristian Gasse va Georg Bezeler bo‘lgan. Ulargacha ham ko‘plab huquqshunoslar meros shartnomasi loyihasini o‘rgangan, ammo aynan Gasse va Bezeler bu ta’limotni mukammal shaklga keltirgan va uning qonun darajasida mustahkamlanishiga olib kelgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasidagi meros huquqini qonun bilan kafolatlanishini belgilovchi norma insonlarning mulkka bo‘lgan huquqini amalga oshirishning muhim kafolati hisoblanadi. Inson huquqlariga doir xalqaro-huquqiy hujjatlarning eng muhim qoidalarini ifoda etuvchi mazkur norma insonlarga o‘z mehnati natijasi besamar ketmasligiga, o‘z erki asosida avlodlariga mol-mulki qolishiga ishonch uyg‘otadi. Bu esa o‘z

navbatida ularning mehnat, tadbirkorlik faolligini oshishiga, mamlakatni iqtisodiy o'sishiga, xususiy mulkni rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Konstitutsiyada xususiy mulkni iqtisodiy tizimning muhim moddiy asosi sifatida belgilanishi meros tizimida ham o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi.

Meros huquqining bir nechta tamoyillari mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Meros huquqining Konstitutsiya va qonun bilan kafolatlanishi tamoyili;
- Vasiyat qiluvchining nafaqat haqiqiy, balki taxmin qilingan irodasini ham hisobga olish tamoyili;
- Merosxo'rlarni tanlash erkinligi tamoyili;
- Merosxo'rlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash tamoyili;
- O'zga shaxslarning noqonuniy yoki axloqsiz tajovuzlaridan meros qoldiruvchi va meros obyektni himoyalash tamoyili;
- Vorislikning universalligi tamoyili;
- Vasiyatnoma erkinligi tamoyili;
- Merosni qabul qilishda ustuvorlik va erkinlik tamoyili;
- Vasiyatnoma bo'yicha meros qoldiruvchining istagining o'zgarmasligi tamoyili;
- Vasiyat qiluvchining izoh berish majburiyati yo'qligi tamoyili;
- Qonun bo'yicha meros olish tamoyili;
- Qonun bo'yicha merosxo'rlar tengligi tamoyili;

- Vorislik munosabatlarida insonparvarlik (majburiy ulush olish bilan bog'liq) tamoyili.

Meros huquqining Konstitutsiya va qonun bilan kafolatlanish tamoyilining mohiyati shundan iboratki, unda meros qoldirish va meros olishning huquqiy kafolati, fuqarolarning davlat konstitutsiyaviy tizimi doirasida meros olish huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, shuningdek, meros bilan bog'liq konstitutsiyaviy kafolatga meros qilib olingan mulkni o'zboshimchalik bilan begonalashtirishning oldini olish va merosning adolatli taqsimlanishini ta'minlash, merosxo'rlarning meros huquqidan mahrum qilishning noqonuniy urinishlaridan himoya qilish bilan bog'liq.

Masalan, Germaniya Fuqarolik Kodeksining 1941-paragrafidagi quyidagicha ko'rsatilgan: "Meros qoldiruvchi shartnomasi asosida merosxo'r tayinlashi, shuningdek, vasiyatnoma asosidagi topshiriqlar va yuklamalarni belgilashi mumkin." Nemis modelidagi meros shartnomasining huquqiy tabiatini tahlil qilishda ayrim olimlarning qarashlarini alohida ta'kidlash lozim. Masalan, M.Xarderning ta'kidlashicha: "Meros shartnomasi — bu "o'lim holatiga mo'ljallangan, tiriklar o'rtasidagi bitim" bo'lib, u real huquqiy bitim sifatida ko'riladi va uning huquqiy oqibatlari tomonlardan biri vafot etganidan so'ng yuzaga keladi."

L. Graf esa meros shartnomasini quyidagicha ta'riflaydi: "Bu — ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan tuziladigan, o'lim holatiga oid tasarruf bo'lib, unga ko'ra meros qoldiruvchi shartnoma tomonining boshqa tomonini yoki uchinchi shaxsni o'zining merosxo'ri sifatida tayinlaydi." Bu yerda hali ochilmagan meros bo'yicha tomonlarning o'zaro roziligi ko'zda tutilgan. Germaniya meros

shartnomasi institutining huquqiy tabiati yuzasidan Rossiya olimlarining fikrlari ham e'tiborga loyiqdir. Masalan, Y.P. Putinseva o'z dissertatsiyasida quyidagi xulosaga keladi: "Meros shartnomasining maqsadi merosxo'rni tayinlashdir, bu esa uni oddiy mulk topshirish bitimlaridan, masalan, oldi-sotdi shartnomasidan farqlaydi." Bunday o'ziga xos xususiyat kelajakdagi merosxo'r uchun majburiylikni anglatadi va uning ushbu shartnomadan bir tomonlama voz kechishini istisno qiladi. V.Lorentsning fikricha, meros shartnomasi meros huquqiga oid bo'lsa-da, uning huquqiy kuchi faqat tomonlar tirikligida, ya'ni shartnoma tuzilgan paytda yuzaga keladi. U nemis olimlari bilan bir fikrda bo'lib, bu yerda tomonlarning o'zaro roziligi o'lim sodir bo'lishi holatiga bog'liq ravishda shakllantirilgan yagona holat ekanligini ta'kidlaydi. Bunday bitim ba'zi hollarda cheklovlarga ega bo'lsa-da, u qat'iy majburiyatni yuklamaydi. Xulosa qilib aytganda, Germaniya modelidagi meros shartnomasi o'z mohiyatiga ko'ra ikki tomonlama bitimdir, unda bir tomon ikkinchi tomon oldida muayyan majburiyatlarni oladi, meros qoldiruvchi esa o'z vafotidan so'ng qarshi tomonning merosxo'r sifatida tayinlanishiga rozilik bildiradi.

Amaldagi qonunchilik normalaridan hamda merosning umumiy qoidalaridan kelib chiqsak, meros huquqi quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Birinchi prinsip bu vasiyat bo'yicha merosning qonun bo'yicha merosga nisbatan ustuvorligi prinsipi - bu prinsipga ko'ra vasiyat qiluvchi vasiyatnoma qoldirmagan bo'lsa, u holda unga eng yaqin bo'lgan kishilar merosxo'r bo'ladi.

Subyektiv erkin tanlash prinsipi - ushbu prinsipga ko'ra, vasiyat qoldiruvchi vasiyat qilish huquqini hamda merosxo'rni tanlash huquqini erkin tanlaydi. Birinchi tamoyilga ko'ra, vasiyat qiluvchi o'z xohishiga ko'ra har qanday

shaxsga mol-mulki meros qilib qoldirishga, merosdagi merosxo'rlarning ulushlarini belgilashga, qonun bo'yicha bir yoki bir nechta merosxo'rlarni sababini ko'rsatmagan holda merosdan mahurm qilishga, shuningdek, vasiyatnomaga boshqa buyruqlarni kiritish, vasiyatnomani o'zgartirish va bekor qilish huquqiga ega ekanligini bildiradi.

Qonun bo'yicha merosxo'rlarning tengligi prinsipi - ushbu prinsipga ko'ra, birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi navbatdagi merosxo'rlarmol-mulkni meros qilib olishda teng huquqqa ega bo'ladilar.

Merosning yaxlitligini saqlash prinsipi - meros ochilgan vaqtda merosning merosxo'rlarga yaxlit bir butunlik sifatida o'tishini bildiradi.

Merosxo'rga merosni egallash huquqini ta'minlash prinsipi - ushbu prinsipga ko'ra, hech kim sudning qarori bo'lmay turib, merosdan mahrum qilinishi yoki meros olish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas. Bu tamoyil merosxo'ring merosga layoqatliligi va uning merosga boshqa da'vogarlar bilan tengligi to'g'risidagi prezumsiyani yaratadi.

Meros qoldiruvchining, merosxo'rlarning va boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, huquqiy va axloqiy asoslarni tartibga solish prinsipi - ushbu prinsipga ko'ra, meros qoldiruvchining manfaatlarini himoya qilish vasiyatnomaning mazmuniga muvofiq vasiyatnomaning sirini saqlash, vasiyat qiluvchining manfaatlarini himoya qilish orqali ta'minlanadi, qonun chiqaruvchi va meros qoldiruvchining merosga oid barcha qonuniy majburiy buyruqlarini bajarish, o'z navbatida, merosxo'ring manfaatlari, xususan, meros qoldiruvchining qarzlari bo'yicha merosxo'rlarning

faqat o'zlariga o'tgan meros mulkining qiymati miqdorida javobgar bo'lishi bilan ta'minlanadi.

Demak, meros shartnomasi faqat meros qoldiruvchining vafotidan keyingi munosabatlarni emas, balki vafotgacha bo'lgan davrda ham taraflar o'rtasidagi o'zaro majburiyatlar orqali vorislik munosabatlariga barqarorlik kiritadi. Meros shartnomasi zamonaviy huquqiy munosabatlar doirasida vorislik munosabatlarini barqarorlashtirish, aniq tartibga solish va nizolarni oldini olishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Ushbu institut orqali nafaqat mol-mulk taqsimoti, balki fuqarolarning o'zaro axloqiy va ijtimoiy majburiyatlari ham huquqiy asosda mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fuqarolik huquqi darslik 2-qism, Mualliflar jamoasi O.Oqyulov, X.Azizov, J.Babayev, O.Kamalov va boshqalar, I.Nasriyev, M.Choriyev tahriri ostida Toshkent 2023 y, Elektron manbaa <https://drive.google.com/file/d/1WpzfbmNvClfEgXk6el77l9OVQZObOyug/view>.

2. R.Muxammedov Meros huquqi. –Toshkent: 1998. –5 b.

3. J.I.Yuldashev Vorislik va oila huquqi. O'quv qo'llanma. Yuridik fanlar doktori, professor O. Oqyulovning umumiy tahriri ostida. –T.: TDYUI nashriyoti, 2024. –7-b.

4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 2-qism 1997-yil 1 martdan kuchga kirgan (22.04.2025 y., 03/25/1060/0373-son) <https://lex.uz/docs/180552>.

5. Fuqarolik huquqi darslik 2-qism Mualliflar jamoasi O.Oqyulov, X.Azizov, J.Babayev, O.Kamalov va boshqalar, I.Nasriyev, M.Choriyev tahriri ostida Toshkent 2023 y., Elektron manbaa <https://drive.google.com/file/d/1WpzfbmNvClfEgXk6el77l9OVQZObOyug/view>.

6. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 2-qism 1997-yil 1 martdan kuchga kirgan (22.04.2025 y., 03/25/1060/0373-son) <https://lex.uz/docs/180552>.

7. Пучков О.А. Пучков В.О. Наследственный договор как особый институт гражданского права иностранных государств: общая характеристика и проблемы правового режима // Журнал «Правопорядок: история, теория и практика», №3 (10). – 2016. – с. 35.

8. Германское гражданское уложение: Вводный закон к Германскому уложению: перевод с немецкого / Науч. Ред. А.Л.Маяковский и др. – 2-е издание, доп. Науч. – М.: ВолтерсКлувер, 2006. –с.534.

9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (01.05.2023 yildakuchgakirgan., 03/23/837/0241-son) Elektron manbaa <https://lex.uz/docs/6445145>.

10. J.I.Yuldashev Vorislik va oila huquqi. O'quv qo'llanma. Yuridik fanlar doktori, professor O. Oqyulovning umumiy tahriri ostida. –T.: TDYUI nashriyoti, 2024.- 4-5-b.

11. J.I.Yuldashev Vorislik va oila huquqi. O'quv qo'llanma. Yuridik fanlar doktori, professor O. Oqyulovning umumiy tahriri ostida. –T.: TDYUI nashriyoti, 2024. –7-b.
12. Germaniya Fuqarolik Kodeksi 1986 yilda qabul qilingan, Elektron manba: <https://www.wipo.int/wipolex/ru/legislation/details/17664>.
13. HarderM. Zuwendungenunter Lebendenauf Todesfall. Ducker &Humbolt. – Berlin, 2008 – p.34
14. Graf H.L. Nachlaßrecht. Handbuch der Rechtspraxis. 8 Auflage. München: C.H. Beck'scheVerlagsbuchhandlung, 2010. – p.99.
15. Путинцева Е.П. Распоряжения на случай смерти по законодательству Российской Федерации и Федеративной Республики Германия // Диссертация на соискание степени к.ю.н. – Екатеринбург, 2015. – с.36.
16. Лоренц Д.В. Наследственный договор: подход континентального права // Право. Журнал Высшей школы экономики. 2020. № 2. – с. 108.
17. Курганова А.Ф. "Гражданско-правовые режимы наследования по законодательству Республики Узбекистан:12.00.03-гражданское право; семейное право; гражданский процесс" ТГЮИ –Т., 2007-182 б.